

BOLALARDA VATANPARVARLIK TUYG‘ULARINI SHAKLLANTIRISH

Rasulova Zamira

*Namangan viloyati pedagoglarni yangi
metodikalarga o‘rgatish milliy markazi
professor- o‘qituvchisi*

Qambarova Nazira

*Namangan viloyati pedagoglarni yangi
metodikalarga o‘rgatish milliy markazi
professor- o‘qituvchisi*

Aliyeva Ravshanoy

*Namangan viloyati pedagoglarni yangi
metodikalarga o‘rgatish milliy markazi
professor- o‘qituvchisi*

***Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni yuksak axloqli qilib tarbiyalashda tarbiyachi oldida turgan vazifalar haqida so‘z yuritilgan. Bolalarni ilk yoshdan boshlab mehr-muruvvatli qilib voyaga yetkazish, milliy istiqlol goyasini ular ongiga singdirish masalalari yoritilgan. Tarbiyachi oldida turgan vazifalarni hal etish usul va metodlari ko‘rsatilib, tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** tarbiyachi, istiqlol, milliy g‘oya, axloq me‘yorlari, Vatan, ertaklar, pedagogik texnologiyalar, o‘yinlar, rivojlantirish.*

***Аннотация:** В статье говорится о задачах, стоящих перед воспитателями при воспитании высоконравственных детей в дошкольных образовательных организациях. Освещаются вопросы воспитания детей в доброте с раннего возраста, внедрения в их сознание идеи национальной независимости. Показаны приемы и способы решения задач, стоящих перед воспитателем, и даны рекомендации.*

Ключевые слова: воспитатель, самостоятельность, национальная идея, нравственные нормы, Родина, сказки, педагогические технологии, игры, развитие.

Abstract: The article talks about the tasks faced by educators in raising children with high morals in preschool educational organizations. The issues of raising children with kindness from an early age, inculcating the idea of national independence into their minds are covered. Methods and methods of solving the tasks facing the educator are shown and recommendations are given.

Key words: educator, independence, national idea, moral standards, Motherland, fairy tales, pedagogical technologies, games, development.

Vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg'ulari bu qushaloq tuyg'ular bo'lib, ularni bobolarimiz ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi tizimida birgalikda singdiriladigan tuyg'ulardir. Yuqoridagi fikrlar asosida bolalarimizga vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his tuyg'ularini bolaning ilk yoshidan avvaliga oilada va maktabgacha ta'lim muassasalarida boshlash yaxshi, ijobiy samaralar beradi. Bu esa ota-onalar va tarbiyachi murabbiylar oldilarida turuvchi dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Murg'ak qalblarda Vatan tuyg'usi nimadan boshlanadi o'zi? Jajji yuraklarda Vatan tuyg'usi- bu onalar allasi, bobolar o'giti, oila tarbiyasidan boshlanadi. Vatan tuyg'usi- bu milliy qadriyatlar, urf odatlarni qadrlash, sevish va undan faxrlanish degani.

Vatan tuyg'usi – buyuk siymolarimizdan ibrat olish degani. Ibn Sino, Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi ota-bobolarimizni tanish, ulardan faxrlanish, ularni doimo eslamog degani.

Vatan tuyg'usi – bu Vatanga munosib farzand bo'lishni anglash degani.



Vatan tuyg‘usi- bu Vatani, xalqi uchun kurashgan millatimiz fidoiylaridan ibrat olish degani. Ular kabi vatanparvar bo‘lishni niyat qilib qolish degani. Bolalarga millatimiz fidoiylari, askar akalarimizning qahramonliklari haqida so‘zlab berish bilan

Vatan tuygʻusi singdiriladi. Bayram tadbirlarida askarlar formasida, harbiy musiqaga, harbiycha harakatlarni bajarish ularda faxrlanish va havas tuygʻusini uygʻotadi. Vatanimizni asrash katta-yu kichik barchaning burchi ekanligini anglash hissini shakllantiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda pedagoglar bolalarga Vatanni qalbdan chuqur his qilishlari uchun Vatan nima? Nima uchun biz uni sevamiz? degan savollarga javob topishiga yordam berishi lozim. Masalan, Ona Vatan haqida she'rlar, rivoyatlar o'qib berilib Vatanimizning tabiati, insonlari, tinchlik, do'stlik haqida rasmlar chizdiriladi. Quyida katta, tayyorlov guruhlar uchun "Vatanni mardlar qo'rqalaydi" mavzusida mashg'ulot ishlanmasi tavsiya etiladi.

Mavzu: "Vatanni mardlar qo'rqalaydi".

Maqsad: Bolalarda fidoiylilik, vatanparvarlik, mehr shafqat, jasurlik hislarini tarbiyalash va shakllantirish.

Mashg'ulotning borishi:

Aziz bolajonlar bugun sizlar bilan Vatan haqida suhbatlashamiz. Qani bolalar Vatan deganda kim nimani anglaydi ?

Nilufar: – "Vatan – bu biz tugʻilgan joy".

Malika: – "Vatan – bu, O'zbekiston".

Tarbiyachi barakalla bolajonlar. Vatan – bu biz tugʻilgan, kindik qonimiz toʻkilgan joy, ota – bobolarimiz, ajdodlarimizdan meros qolgan zamin. Vatan avvalo oilamiz, mahallamiz, koʻchamiz, shahrimiz, qarindosh urugʻlarimiz, ularning har biri Vatanimizning uzviy parchasidir. Qani aytinglarchi biz yashab turgan joyning nomi nima ?

Bekzod: – O'zbekiston

Tarbiyachi: Toʻgʻri bizning vatanimiz O'zbekiston. Bu goʻzal yurtimizning tabiati ajoyib manzaralari, dilimizga huzur bagʻishlaydi. Bizning yurtimiz vodiylarga, vohalarga, goʻzal bogʻu – rogʻlarga, serhosil va unumdor zamin kengliklariga boydir. O'zbekistonimizning goʻzal tabiatini juda koʻp rassomlarimiz goʻzal qilib tasvirlashgan.

Shoirimiz Hamid Olimjon, O‘zbekiston she‘rida Vatan g‘oyasini ko‘tarinki ruhda madh etadi.

Bolajonlar, biz hammamiz o‘zbek millatiga mansubmiz. Biz bu bilan doim faxrlanishimiz zarur, unga mehr – shafqatli bo‘lishimiz kerak. O‘zbek xalqi mehnatkashligi, jafokashligi, g‘oyat sabrli, bardoshli, keng fe‘lli, mehr – shafqatli, mehmondo‘st, bolajon, rahmdil va vatanparvarligi bilan obro‘ qozongan. Kishi o‘z vatanida yayrab – yashnab yashaydi, Vatanni asrab avaylaydi, odamlarga mehr – shafqat ko‘rsatadi. Vatanning mehrli fidoiy kishisi bo‘lib yashaydi. Bolajonlar endi oldingizdagi oppoq qog‘ozga o‘z Vatanimiz, ko‘chamiz, maktabgacha ta‘lim muassasangizni, mahallangizni rasmini tasvirlab berasizlar. Mashg‘ulotning yakuni. Tarbiyachi mashg‘ulot so‘ngida bolalarning ishlarini kuzatib, yaxshi chiqqan rasmlarni bolalarga ko‘rsatadi, bolalarni rag‘batlantiradi.

Kuzatish shuni ko‘rsatadiki, bolalarda mashg‘ulot orqali ona yurtga muhabbat hissi kuchaydi. Bolalarda mehr – muhabbat, hissi shakllandi. Mustaqillik sharofati bilan qayta tiklangan, xaq – huquqlarimiz, ozodlik, erkinlik, o‘z davlat tiliga ega bo‘lish tabiat boyliklaridan xalq baxt saodati, manfaati yo‘lida foydalanish haqida bilimga ega bo‘ldilar. Mashg‘ulotlarda bolalardan Ona yurtni sevish, uning boyliklarini qadrlash, ota – onalariga, do‘st – o‘rtoqlariga, mehr – shafqat ko‘rsatish, o‘z ona tuprog‘ini har bir qarich yerini asrab avaylash, uning uchun jonini fido qilish kabi his – tuyg‘ularni shakllantirildi. Qisqacha aytganda, maktabgacha ta‘lim muassasalarida tarbiyachilar faoliyati samaradorligini oshirish bir qancha omillarga bog‘liq bo‘ladi. Har bir omil o‘ziga xos samaradorlikka erishish garovidir. Tarbiyachi faoliyati samaradorligini oshirish, takomillashtirish orqali biz yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol, komil inson bo‘lib voyaga yetishishlaridek orzuyimizga erishamiz.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. I.A. Karimov “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” T. Ma‘naviyat 2008y.
2. Karimov I “O‘zbekiston mustaqillikka erishi ostonasida”. Tosh. “O‘zbekiston”. 2011y.
3. Mahkamov U. Axloq – odobsaboqlari. –T.: Fan, 1994. -134b.